

MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARIGA INNOVATSIYALARNI JORIY  
ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH ZANJIRINING BARQARORLIGINI  
TA'MINLASH MASALALARI

Mamitaliyeva Begnoza Mamajon qizi

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

Dexkanova Nargiza Sharifovna

*Ilmiy maslahatchi: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD v.b dotsenti,*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi milliy iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish zanjirining barqarorligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ilmiy-texnikaviy rivojlanish va raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish samaradorligining ortishi, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiyot tarmoqlaridagi raqobatbardoshligiga ko'rsatadigan ta'siriga qaratiladi.

Tayanch iboralar.

#### KIRISH

Hozirgi zamon iqtisodiyotida innovatsiyalar har qanday iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksiz va samarali faoliyatini ta'minlash bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Innovatsiyalarni joriy qilish va rivojlantirish orqali mamlakatlar o'z iqtisodiy o'sidhlarini tezlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqdalar. Innovatsion faoliyat, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Masalan, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatchilar bilan taqqoslaganda korxonalariga o'z mahsulotlarini yanada raqobatbardosh narxlarda taklif etishga imkon beradi. Shularni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida ham qulay tadbirkorlik muhitini yaratish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida ham innovatsion ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish hamda ilg'or texnologiyalarni joriy etishga qulay muhit yaratish bo'yicha keng ko'lamli chor-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi PF-158-son Farmoni hamda 2022-yil 6-iyuldagi "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi" to'g'risidagi PF-165-son Farmonlarida belgilangan vazifa va chora tadbirlarni amalga oshirish innovatsion faoliyatni rivojlantirish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish orqali milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish zanjirining barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.



Asosiy qism. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bir necha omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksizligi va samaradorligi alohida ahamiyatga ega. Globalizatsiya jarayonlari, shuningdek, pandemiya, geosiyosiy beqarorlik, logistika inqirozlari va resurslar tanqisligi kabi tashqi va ichki muammolar milliy iqtisodiyot xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Ushbu muammolar ishlab chiqarish tizimlarini zamonaviy innovatsion yechimlar asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Chiheng Wei (2025) va Wenfeng (2024) larning fikriga ko'ra, innovatsiyalar orqali ishlab chiqarish zanjirining barqarorligini ta'minlash milliy iqtisodiyotlar uchun, ayniqsa global uzilishlar sharoitida, hal qiluvchi vazifadir. Bu ta'minot zanjiri boshqaruvi, xavflarni boshqarish va barqarorlik strategiyalarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi<sup>11</sup>. Innovatsion yondashuvlar ishlab chiqarish zanjirining har bir bo'g'inida - xomashyo yetkizib berishdan tortib, yakuniy mahsulot tarqatilguniga qadar - xavflarni oldindan aniqlash, ssenariy asosida boshqaruv rejasini ishlab chiqish, real vaqt rejimida monitoring olib borish va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Bunday tizimli yondashuv orqali ishlab chiqarishning uzluksizligi, moslashuvchanligi va xavfsizligi ta'minlanadi.

Shu sababli ishlab chiqarish zanjirining barqarorligini ta'minlashda innovatsiyalarni tizimli tarzda joriy etish - bu nafaqat texnologik yangilanish, balki butun iqtisodiy boshqaruv tizimining transformatsiyasi, strategik muvozanatni saqlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni real sektor tarmoqlariga tatbiq etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida bu borada aniq strategik vazifalar belgilangan bo'lib, ular asosida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, texnoparklar faoliyatini kengaytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish choralari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalar orqali muvaffaqiyatli startap loyihalarni seriyali ishlab chiqarish bosqichlarida qo'llab-quvvatlash mexanizmlari belgilangan. Bu mexanizmlar xususiy sektorning yangi ilmiy ishlanmalarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va innovatsiyalarni "hamkorlikda moliyalashtirish"ga bo'lgan manfaatdorligini rag'batlantirishga qaratilgan<sup>12</sup>. Bu esa ishlab chiqarish zanjirlarining texnologik jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni kuchaytirish va uni ishlab chiqarish zanjirining bir bo'g'iniga tatbiq etish barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Eng ilg'or ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish, sun'iy intellektdan foydalanish va barqaror amaliyotlarni o'zlashtirish orqali tashkilotlar o'z faoliyatini soddalashtirishi, chiqindilarni kamaytirishi va natijada yanada barqaror ta'minot zanjirini yaratishi mumkin. Masalan, avtomatlashtirish va robototexnikadan foydalanish mehnat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi va ishlab chiqarish tezligini oshirishi mumkin,

<sup>11</sup> Chiheng Wei (2025) The current situation and challenges of supply chain management: taking Huawei as an example. *Advances in Economics, Management and Political Sciences*, Ewa Publishing, Volume 149, Pages 62-66, ISSN 2754-1177

Wenfeng Zheng (2024) Recent Research Advances and Challenges in Supply Chain Resilience Management. *Highlights in Business, Economics and Management*, Volume 42, Pages 92-98

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarori.



ma'lumotlar tahlili esa zaxiralarni boshqarishni optimallashtirishi va ortiqcha zaxiralarni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari innovatsion infratuzilmani rivojlantirish texnologik taraqqiyot va qulay muhitni yaratish uchun juda muhimdir. Shu jumladan, ilmiy doiralar va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik markazlari bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan texnopark va ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil etish. Bunday hamkorliklar bilim va tajribalarni almashish, har xil sohalarda qo'llanilishi oson bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratishga yordam beradi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali texnologik yutuqlarning sohalarga kengroq kirib borishini ta'minlash mumkin. Bunday hamkorlik nafaqat yangi texnologiyalarni tatbiq etishni tezlashtiradi, balki iqtisodiyotda raqobatbardosh muhitni yaratishga turtki bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarori "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi PF-158-son Farmoni
3. Porter, M. (2008). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
4. Xalikov N., Toshpulatov B. (2022). "Milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish mexanizmlarining takomillashuvi". – Iqtisodiyot va innovatsiyalar.
5. Chiheng Wei (2025) The current situation and challenges of supply chain management: taking Huawei as an example. Advances in Economics, Management and Political Sciences, Ewa Publishing, Volume 149, Pages 62-66.
6. Wenfeng Zheng (2024) Recent Research Advances and Challenges in Supply Chain Resilience Management. Highlights in Business, Economics and Management, Volume 42, Pages 92-98.
7. [www.innovatsiya.uz](http://www.innovatsiya.uz)